

YAPON MUSHMULASINING TARQALISHI VA UCHRAYDIGAN HUDUDLARI

Begmatov Abdusamat Mamatqulovich - Termiz davlat universiteti, dotsent.
Termiz, Uzbekistan

Annotatsiya. O‘zbek tilida: Maqolada Yapon mushmulasining tarqalishi, o‘shish sharoitlari va uning dunyoning turli mintaqalaridagi ekotizimlarga moslashishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, o‘simlikning agronomik ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yapon mushmulasi, tarqalish, ekotizim, agronomiya, iqlim, o‘shish, o‘simlik.

Аннотация. Статья рассматривает распространение японской мушмулы, условия её роста и приспособление к экосистемам разных регионов мира. Также обсуждается агрономическое значение растения.

Ключевые слова: японская мушмула, распространение, экосистема, агрономия, климат, рост, растение.

DISTRIBUTION OF JAPANESE LOQUAT AND ITS FOUND REGIONS.

Begmatov Abdusamat Mamatkulovich - Termiz State University, dotsent.
Termiz, Uzbekistan

Abstract. This article explores the distribution of Japanese loquat, its growing conditions, and adaptation to ecosystems in different regions of the world. The agronomic importance of the plant is also discussed.

Keywords: Japanese loquat, distribution, ecosystem, agronomy, climate, growth, plant.

Osiyoning janubiy-sharqidagi geografik viloyati Hindixitoy yarim oroli, Malay arxipelagi va unga yondosh hududlarni o‘z ichiga oladi. Maydoni 4,5 mln. km². relyefi o‘rtacha balandlikdagi tog‘ va tekisliklardan iborat. Tropik o‘rmon va savannalar keng tarqalgan. Iqlimi nam ekvatorial va subekvatorial mussonli, janubiy-sharqda Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kamboja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand, Filippin davlatlari joylashgan. Ba‘zan janubiy-sharqiy Osiyoda joylashgan davlatlarni Janubiy Osiyo tarkibiga ham kiritiladi.

Sharqiy Osiyo- Osiyodagi tabiiy o'lkalar (ba'zida bir guruh tabiiy o'lkalar sifatida ko'riladi) - Tinch okeanga tutash taxminan 60° va 20° oralig'idagi tropik, subtropik va mo'tadil mintaqalarni o'z ichiga oladi. Relyefi murakkab tuzilishga ega, o'rtacha balandlikdagi tog' va tog' oldi (Jugjur, Sixote Alin, Katta Xingan, Sinlin, Nanlin, Kamchatka) va akkumulyativ tekisliklar (Amurbo'yi, Shimoliy Sharqiy Xitoy, Buyuk Xitoy) almashinib keladi. Sharqiy Osiyoning katta qismi g'arbiy Tinch okean geosinklinal mintaqasida joylashgan.

Geosinklinal mintaqalar-Yer po'stining uzun (o'n, yuzlab km), nisbatan tor va chuqur cho'kmasi hisoblanadi. Dengiz havzalari tubida vujudga keladi va odatda, yer yoriqlari bilan chegaralangan, cho'kindi va vulqon jinslarining qalin qatlami bilan to'lgan bo'ladi. Uzoq davom etgan shiddatli tektonik deformatsiyalar natijasida Geosinklinal murakkab burmali struktura- tog' tizimlariga aylanadi. Odatda, okeandan qit'aga o'tish zonasida yoki qit'alar oralig'ida joylashadi. Geosinklinal okean tubi Yer po'stining qit'a yer po'stiga aylanishi deb tushuniladi.

Vulqon ko'p, seysmik faol zona. Iqlimi yozi sernam, mussonli va qishi quruq iqlim. Yoz va kuz oylarida tayfun ko'p bo'ladi. Tabiiy o'simliklari, asosan, shimolda aralash va tayga o'rmonlari, janubi keng bargli subtropik va tropik o'rmonlardan iborat. Qurg'oqchil hududlarda o'rmon-dasht va dasht o'simliklari o'sadi. Tekisliklarda aholi zich, katta maydonlar ekinzorlardan iborat. Sharqiy Osiyoda Rossiya va Xitoyning sharqiy qismi, Yaponiya, Koreya (KXDR va Koreya respublikasi) joylashgan, ba'zida Filippinni ham shu o'lkalar tarkibiga kiritiladi.

Tabiati asosan, mo'tadil va subtropik mintaqalarda (janubiy qismida kichikroq hudud tropik mintaqada) joylashgan. Tabiati jihatidan Sharqiy Osiyoda joylashgan sharqiy va Markaziy Osiyoda joylashgan g'arbiy qismlarga bo'lingan. Mamlakatning sharqiy qismi dengiz bo'yi pasttekisliklari, past va o'rtacha balandlikdagi tog'lardan iborat. Xitoyning g'arbi esa baland tog'lik, katta tizmalar,

keng yassi tog'lik va botiqlardan iborat. Xitoy qirg'og'ining uzunligi 15 ming km. Yirik yarim orollari: Shandun va Lyaodun.

Xitoy murakkab orografiyaga ega bo'lgan tog'li o'lka. Mamlakatning janubiy g'arbida Tibet tog'lari, undan shimolda Markaziy Osiyo tekisliklari va yassi tog'lik mintaqalari va atrofi tog'lar bilan o'ralgan Sharqiy Xitoy pasttekisliklari yaqqol ajralib turadi. [Tibet tog'i](#) Xitoyning eng baland qismidir (o'rtacha balandlig 4500 m ga yaqin).

Markaziy Osiyo tekisliklari va yassi tog'liklari g'arbda bir-biridan Sharqiy Tyansnan tog'lari bilan ajralgan, Hashqar tekisligi va Jung'ariya tekisligini o'z ichiga oladi. Ularga janubiy sharqdan Turfon soyli (tubi dengiz sathidan 154 m past) tutashgan. Sharda esa Gashun Gobisi, Alashan va Ordos plato va tekisliklari, ular orasida Beyshan, Alashan va Inshan tog'lari joylashgan. Sharqiy Xitoy past tekisliklari, asosan, Sariq dengiz sohili bo'ylab shimoldan janubga cho'zilgan va tog' tizmalari bilan o'ralgan.

Xitoyning iqlimi g'arbda kontinental, sharqda, asosan, mussonli bo'ladi. Mavsumlar davomida havo haroratining farqi katta. Yanvarning o'rtacha harorati Xarbinda $-20,4^{\circ}$, Pekinda $-4,6^{\circ}$, iyulniki xuddi shu joylarda 23° va 26° darajaga etadi. Yillik yog'in Sharqiy Xitoyda 500-2000 mm (ko'p qismi yozda yog'adi) g'arb va shimoliy g'arbgacha tomon iqlimning kontinentalligi ortib boradi. Yozi issiq (Turfon botig'ida iyulning o'rtacha trasi 34), qishi sovuq, yanvarning o'rtacha harorati Xitoyning shimolida (Xaylar) - 28° , g'arbida (Urumchi) - $14,9^{\circ}$. Yillik yog'in 250 mm dan kam, Qashqar tekisligi va saydamda 50 mm dan kam bo'ladi. Tibet tog'ligida qish juda sovuq, yozi esa salqin. Gartokda (Hind daryosining yuqori qismi) yanvarning o'rtacha harorati - $11,8^{\circ}$, iyulniki $11,8^{\circ}$ bo'ladi. Haroratning sutka davomidagi farqi katta. Kuchli shamollar esadi. Xitoyning baland tog'larida muzliklar bor, lekin yog'in kamligidan katta maydonni egallamaydi (100 ming km² chamasida).

Xitoyning iqlimi juda xilma-xil - janubi-sharqdagi subtropikdan shimoli-g'arbdagi keskin kontinental (quruq) gacha bo'ladi. Janubiy qirg'oqda ob-havo

quruqlik va okeanning turli xil singdirish xususiyatlari tufayli yuzaga keladigan mussonlar bilan belgilanadi. Mavsumiy havo harakati va ular bilan birga keladigan shamollar yozda ko'p miqdorda namlikni o'z ichiga oladi va qishda juda quruq bo'ladi. Mussonlarning boshlanishi va chekinishi ko'p jihatdan butun mamlakat bo'ylab yog'ingarchilik miqdori va tarqalishini belgilaydi. Xitoyda kenglik, uzunlik va balandlikdagi katta farqlar, mamlakatning ko'p qismi mo'tadil iqlimda joylashganiga qaramay, turli xil harorat va meteorologik rejimlarni keltirib chiqaradi.

Mamlakat hududining 2/3 qismidan ko'prog'ini tog' tizmalari, baland tog' va platolar, cho'l va chala cho'llar egallaydi. Aholining taxminan 90 foizi mamlakat hududida va atiga 10 foizida - qirg'oqbo'yi hududlarida va Yangtze, Xuanj ("Sariq daryo") va Chjujiang kabi yirik daryolarning tekisliklarida yashaydi. Bu hududlar uzoq va intensiv qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish va atrof-muhitning sanoat bilan ifloslanishi natijasida og'ir ekologik vaziyatga tushib qolgan.

Xitoyning eng shimolidagi Heilongjiang provinsiyasi Vladivostok va Xabarovsk iqlimiga o'xshash mo'tadil iqlimga ega, janubiy Xaynan oroli esa tropik mintaqada joylashgan. Qish oylarida bu hududlar orasidagi harorat farqi katta, ammo yozda farq ancha kamayadi. Heilongjiang shimoliy qismida qishki harorat -38° gacha tushishi mumkin, yanvarning o'rtacha harorati -16° atrofida boladi. Bu hududda iyul oyining o'rtacha harorati 20° , Guangdongning janubiy qismlarida o'rtacha harorat yanvarda 10° dan iyulda 28° gacha etadi.

Yog'ingarchilik hatto harorat kabi o'zgarib turadi. Qinling tog'larining janubiy yonbag'irlarida ko'plab yomg'ir yog'adi, ularning eng ko'pi yozgi mussonlarga to'g'ri keladi. Tog'lardan shimol va g'arbga qarab harakatlansangiz, yomg'ir bo'lish ehtimoli kamayadi. Mamlakatning shimoli-g'arbiy hududlari eng qurg'oqchil bo'lib u yerda joylashgan cho'llarda (Takla-Makan, Gobi, Ordos) deyarli yog'ingarchilik bo'lmaydi.

Xitoyning janubiy va sharqiy hududlarida tez-tez (yiliga 5 marta) halokatli tayfunlar, shuningdek, toshqinlar, mussonlar, sunamilar va qurg'oqchiliklar bo'lib turadi. Xitoyning shimoliy hududlari har yili bahorda shimoliy cho'llardan kelib chiqadigan Koreya va Yaponiyaga olib boradigan sariq chang bo'ronlari bilan qoplanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonturdiyev Q, Xoliqov Q. Makkaisano (cassia)ni bioekologik xususiyatlari. Janubiy O'zbekiston xomashyobop o'simliklarini o'rganish. Termiz, 2003. 5-6 bet.
2. Fozilov S. The effect of drought on the water regime in the leaves of soybean varieties //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 25-28.
3. Ravshanova U. B. et al. Soya o'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim manbai sifatida //Экономика и социум. – 2022. – №. 11-1 (102). – C. 81-84.
4. Musurmonovich F. S., Baxriddinovna R. U. Soya barglarida fotosintez va transpiratsiya jadalligining o'ziga xos xususiyatlari //Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 268-272.
5. Musurmonovich F. S., Baxriddinovna R. U. Oqsil taqchilligini ta'minlashda soya o'simligining o'rni //Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 254-258.
6. Musurmonovich F. S. Bug'doy navlarining gullash fazasida suv almashinuv xususiyatlari //Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 578-583.
7. Musurmonovich F. S. Dorivor mavrakning bioekologiyasining o'ziga xos xususiyatlari //Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy

ta'limning innovatsion yo'nalishlari. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 571-577.

8. Тўхтаев Б.Е. Интродукция лекарственных растений на засоленных землях Узбекистана: Автореф. дис. ... докт. биол. наук. - Ташкент, 2009. -38 с.

9. Филиппов Л. А. Рефрактометрический метод и принципы диагностирования сроков полива чайных растений // Водный режим и орошение плодовых и субтропических культур в горных условиях НИИ горного садоводства и цветоводства, 1975. – Вып. 21. – С. 102-121.